

VATAN SAJDAGOH KABI MUQADDASDIR!

Noraliyev Sanjar

*DXX CHQ "Yosh chegarachilar" HAL Matematika fani o`qituvchisi**"Vatan mening jonu dilim sajdaxohindur"*

Abdurauf Fitrat

Annotasiya: *Mazkur maqolada Vatan naqadar ulug` maskan ekanligi takidlanib, muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tasabbuslari bilan tashkil etilgan. "Vatandoshlar" jamoat fondi uning maqsad vazifalari qisqacha bayon etilib bu fondni rivojiga chet elda ham yurtimizda ham istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni qalbida vatanparvarlik tuyg`ularini rivojlantirishda, Oliy ta`lim maskanlari qoshidagi madaniyatshunoslik kafedralarining o`rni nihoyatda katta ekanligi takidlab o`tilgan.*

Tayanch so`zlar: *Vatan, xalq og`zaki ijodi, vatandoshlar, elat, urf odatlari, madaniyati.*

Vatan naqadar buyuk so`z. Vatan-bu tug`ulib o`sgan joy, ona yurt, kishilarning yashab turgan, ularning avlod- ajdodlari tug`ilib o`sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatuvchi tushuncha. Vatan tushunchasi asrlar davomida ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyot muhiti bilan o`zgarib, kengayib, rivojlanib kelgan. Qadimda muayyan qabila yashagan joy uning vatani sanalgan. Qondosh va tildosh qabilalarning birlashuvidan elat paydo bo`lgan. Elat istiqomat qilgan joy el deb yuritilgan. O`zbek xalq og`zaki ijodi "Alpomish" dostonida ham Chanbil eli degan ibora ishlatiladi.

Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvni paydo bo`lishi bilan vatan sozi xalq va davlat tushunchalarini ham anglata boshlagan. Xalqning tili, urf odatlari, madaniyati, ma`naviyati, iqtisodiy-ijtimoiy turmush tarzi yuksalishi bilan kishilar o`rtasida mushtaraklik shakillandi[3].

O`zbekiston Respublikasi millati, tili, dinidan qat`iy nazar shu diyorda istiqomat qilayotgan barcha insonlarni vatanidir. Bu bizni bosh qomusimiz konstitutsiyamizni 8-moddasida ham mustahkamlab qo`yilgan "O`zbekiston xalqini millatidan qat`iy nazar, O`zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"[1]. Bu o`rinda xalq, davlat va vatan ayni bir ma`noni anglatadi. O`zbekiston Respublikasi deganda vatanni tushinamiz, vatan deganda O`zbekiston Respublikasini tasavvur etamiz.

Sobiq mutabid tuzum davrida xukumron mafkura biz uchun asl vatan tushunchasini soxtalashtirib, qalbimiz va ongimizga mavxum vatan tushunchasini singdirmoqchi bo`lishdi. O`zbeklar uchun umrida borib ko`rmagan, minglab kilometr uzoqlikdagi giyoh unmaydigan, oylar davomida quyosh yuzini ko`rmaydigan joylar ham go`yoki O`zbekiston bilan bir qatorda vatan edi. Xolbuki vatan - tarixan shakllanmagan aniq tushuncha. Mustaqillik xalqimiz ongi va shururida haqiqiy vatan xissi ona yurt tushunchalarini mustahkamlamoqda. O`z ona yurtini sevish va ardoqlash, sarhadlarini dahlsizligini saqlash, sha`nu sharafini yuksaltirish yo`lida fidokorona xizmat qilish, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bugungi kunda tom ma`noda sharafli ishga aylanmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning tashabbuslari bilan 2021 yil 11 avgustda «Vatandoshlar» jamoat fondi tashkil etildi. PQ-5220-sonli qaroriga asosan. Ushbu «Vatandoshlar» jamoat fondini tashkil etishdan asosiy maqsad – dunyoning 100 ga yaqin davlatlarida yashab kelayotgan 10 milliondan ortiq vatandoshlar, ular tomonidan tashkil etilgan 170 dan ortiq madaniy markazlarni qoʻllab-quvvatlashdir

“Vatandoshlar” jamoat fondining asosiy faoliyati yoʻnalishlari etib quydagilar belgilandi:

□ Chet elda yashab faoliyat yuritayotgan vatandoshlar va ular tomonidan tashkil etilgan jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qilish va aloqalarni rivojlantirish, hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga yordamlashish;

□ Xorijiy davlatlarda kiyin, ogʻir ahvolga tushib qolgan vatandoshlarimizni muayyan tartibda moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, vatandoshlarimizga huquqiy koʻmak berish axborot jihatidan

□ Xorijiy davlatlarda oʻzbek tili, xalqimizni madaniyati, urf-odatlarini, anʼanalarini va milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlarini qoʻllab quvvatlash;

□ Xorijiy davlatlarda vatanimizning boy yuksak ilmiy, maʼnaviy merosini va madaniyatini keng targʻib qilish va ommalashtirish, yurtdoshlarga madaniy-maʼrifiy tadbirlarni tashkillashtirishga yordamlashish ;

□ Taraqqiy etgan chet davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan ilm va ijod ahllarining vatanimiz nufuzi va obroʻsini oshirishga qaratilgan ilmiy, ijodiy izlanishlarini, faoliyatlarini qoʻllab-quvvatlash;

□ Xorijiy davlatlarda yurtdoshlarimiz tomonidan tashkillashtiriladigan nufuzli tadbirlarda yurtimizdan yetishib chiqqan mashxur yozuvchilarimiz va shoirlarimizni, fan arboblari, diniy ulamolarimizni, madaniyat va sanʼat vakillarini, sportchilarimiz ishtirokini taʼminlashga yordamlashish;

□ Xorijiy davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimizni Oʻzbekiston hududida tadbirkorlik qilishga, investisiyaviy mablagʻlar kiritishga, ilmiy, maʼrifiy va madaniy faoliyat yuritishga keng jalb qilish;

□ Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizni Oʻzbekistonning boy tarixi, madaniyati, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid boʻlgan maʼlumotlar bilan taʼminlashga qaratilgan interfaol elektron portalni yoʻlga qoʻyish

□ Xorijiy davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni oʻzbek tili, madaniyati, kino va sanʼati yoʻnalishlarida Respublika fuqarolariga tenglashtirilgan holda oliy talimda oʻqitish imkoniyatlarini yaratib berish kabi masalalar ham qoʻyilgan.

“Vatandoshlar” jamoat fondini qator masalalarini amalga oshirishda oliy taʼlim qoshida tashkil etilgan “Madaniyatshunoslik” kafedralarining oʻrni niyoyatda kattadir. Men bu “Madaniyatshunoslik” kafedralarining faoliyatlarini rivojlantirish tarafdoriman. Chunki “Madaniyatshunoslik” kafedralarida ishlab faoliyat yuritayotgan professor ustoz oʻqituvchilarimiz, tayanch doktorantlarimiz, mustaqil izlanuvchilarimiz xalqimizni boy madaniyatini ochib berishda kata ilmiy izlanishlar olib borishadi. Undan tashqari bizning boy madaniy merosimizni ilmiy jihatdan vatandoshlarimizning ongi va shururiga sindirishda “Madaniyatshunoslik” kafedrasi va ustozlarni xizmatlari kattadir

Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan ilm ahllari bilan yurtimiz tarixi, madaniyati, san`ati bilan bog`liq bo`lgan ilmiy almashunuvlarda ham bu kafedralarni o`rni kata bo`ladi

Biz juda boy o`tmishga va madaniyatga ega bo`lgan xalqmiz. IX-XII asrlarda

ilk uyg`onish davri (renesans) bizni hududimizda bo`lgan. Yurtimizdan jahon madaniyati va taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan olimlar yetishib chiqqan.

Buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiyni "Al-jabr val muqobala" asarini yaralishi algebra fanini vujudga kelishiga asos bo`ldi. Oddiy cho`tagimizga solib yurgan bizga qulay bo`lgan smartfon telefonimizni vujudga kelishini tub negizida Al-Xorazmiyni kashfiyotlari yotibdi. Yana Xorazm diyorida yetishib chiqqan Az-Zamaxshariy arab diyoriga borib arab gramatikasini yaratishi uning jahon sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishidir. Bugungi kunda Az-Zamaxshariyni "Al-Kashshof" asari orqali Qur`oni o`rganamiz, bu biz uchun ulkan iftihordir.

Abu Rayhon Beruniy yerni dumaloq shaklda ekanligini birinchilardan bo`linb aniqlab, Amerika qit`asi mavjudligini Kolumbdan besh asr oldin mantiqqa tayangan holda bashotat qilgan. Bundan tashqari Farobiy, ibn Sino kabi allomalarimiz, dinni ravnaqi yo`lida xissa qo`shgan Al-Buxoriy, Al-Xakim at Termiziy, Iso Termiziy kabi allomalarimiz ham IX-XII asrlarda dunyo sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishgan.

XIV-XVI asrlar Temuriylar davri madaniyatini yurtimiz va jahon taraqqiyotiga kata tasir qilganligini alohida takidlab o`tmoqchiman. Birgina Amir Temurni "Temur tuzuk"laridagi "Saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish tutgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo`lmagaysan"[2] so`zlarida chuqur ma`no bor. Buyuk sohibqiron Amir Temurni kata saltanatni qanday boshqarganligini shu ikki qator so`zidan ham bilib olishimiz qiyin emas. Amir Temurning ilm-fan, madaniyat, me`morchilik va san`at homiysi ham bo`lgan. Amir Temurni nabirasi Mirzo Ulug`bekni falakkiyotshunoslikda qilgan izlanishlari o`sha davr jahon madaniyati va sivilizatsiyasi uchun olamshumul kashfiyot bo`ldi. 1428-1429 yillarda Mirzo Ulug`bek Samarqandda rasadxona bunyod ettiradi. Bu rasadxonaga ulkan sekstant o`rnatilgan. Rasadxonada o`z davrini yetuk Qozizoda Rumiy, Jamshid G`iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi singari olimlari osmon jismlarini o`rganishgan. O`sha davrda dunyoni biror nuqtasida osmon jismlarini kuzatuvchi bu darajada ulkan asbob bo`lmagan. Ulug`bek Samarqand, Buxoro, G`ijduvonda madrasalar ham qurdirgan bu madrasalar o`sha davr universiteti vazifasini o`tagan[4]. Undan tashqari XV-XVI asrlarda Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur singari kabi buyuk mutafakkirlarimiz yashab ijod qilishgan va ular ham jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shishgan.

Xulosa o`rnida shuni aytmoqchi edimki, yuqorida nomi keltirilgan buyuk shaxslar haqiqiy vatanparvar bo`lishgan. Ular o`z davrida bor kuchi va g`ayratini vatani uchun sarflashgan. Men ayrim buyuk vatanparvar shaxslarni tilga oldim xalos, bunday vatanparvar buyuk shaxslar yurtimizdan juda ko`p yetishim chiqishgan. Bunday buyuk vatanparvar insonlarni ilmiy merosini o`rganish, yurtimizda va xorijda yashayotgan vatandoshlarimizga yetkazishda va vatanparvarlik tuyg`ularini rivojlantirishda yuqorida takidlaganimdek "Madaniyatshunoslik" kafedralarini o`rni kattadir. Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning imzolagan qarorlaridagi ko`plab masalalarni amalga oshirishda, xorijdagi vatandosh olimlarimiz bilan ilmiy ma`lumotlar almashishda hamda OTM bilan hamkorlik aloqalarini olib borishda bu kafedrani o`z o`rni bor deb bilaman.

ADABIYOTLAR:

1. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -O`zbekiston 2017 yil
2. Temur tuzuklari -Toshkent 2019 yil
3. Ma`naviyat asosiy tushunchalar izohli lug`at-Toshkent 2010 yil
4. Haqiqat manzaralari.100 mumtoz faylasuf/Taqdirlar,hikmatlar,aforizmlar/-T:Yangi asr avlodi.2014
5. Kadirova, Y. (2024). O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLAR MADANIY HAYOTIDAGI ISLOHOTLAR VA MA'NAVIY YUKSALISH OMILLARI. *Innovations in Science and Technologies*, 1(1), 90-95.
6. Kadirova, Y. B., & Nurillaevna, R. M. (2023). O 'QUVCHILARGA AJDODLAR MEROSINI O 'RGATISH ORQALI ULARDA O 'QUV-BILISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).
- 7, Buvabaevna, K. Y. (2023). JANUBIY VILOYATLAR AHOLISINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH BORASIDAGI O 'ZGARISHLAR VA INSON QADRINI YUKSALTIRISH OMILLARI. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 686-689.
- 8, Kadirova, Y. B. (2023). TA'LIM JARAYONIDA O 'QITISHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALIYOTIDA QO 'LLASH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 541-548.
- 9, Kadirova, Y., & Komilova, S. (2022). THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON HUMAN CONSCIOUSNESS. *Science and innovation*, 1(8), 1360-1363.